

IPAKCHILIK TARMOG'IDA KLASTER TIZIMINI SHAKILLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Haydarov San'at Sunnatovich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, T.f.f.n,

Patxullayev Sarvarjon Ubaydulla o'g'li

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti. T.f.f.n,

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ipakchilik tarmog'ida klaster tizimini shakillantirish va samaradorligini oshirishning ahamiyati sohadagi ishlab chiqarish hajimlari va mahsulotlar korxonalar tahlillari keltirilgan bo'lib mamlakatimizda 2022-2025 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xom ipak, ipak momig'i, yigrilgan ipak ipi, ipak matolari, ipak gilamlari, tayyor ipakli mahsulotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Klaster, xom ipak, yigrilgan ipak ipi, ipak matolari, ipak gilamlari.*

ABSTRACT

This article presents an analysis of the production volumes and products of enterprises in the sector, the importance of forming a cluster system in the sericulture industry and increasing its efficiency. It analyzes the products produced in our country in 2022-2025, including raw silk, silk wool, spun silk yarn, silk fabrics, silk carpets, and finished silk products.

Keywords: *Cluster, raw silk, , spun silk thread, silk fabrics, silk carpets.*

KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqaro amaliyotda sinalgan va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi bozor munosabatlarini va tajribalarini hayotga tatbiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shulardan biri klasterlar bo'lib, hozirda iqtisodiyotimizning ipakchilik, to'qimachilik va yengil sanoat sohasida ushbu tuzilma faoliyatini yo'lga qo'yishga kirishilmoqda. Xususan ipakchilik tarmog'ida ham klaster tizimi yo'lga qo'yildi. Xo'sh, klaster o'zi nima, uning qanday afzalliklari bor? Ko'pgina manbalarda rivojlangan davlatlarning tajribalari barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda, investitsion faollikni oshirishda, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishda xalqaro logistik markazlari, erkin iqtisodiy zonalar kabi klasterlarning o'rni va ahamiyati juda yuqori ekanligi ko'rsatilgan. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan. Xorijiy va mahalliy

tadqiqotchilarning tahlillarida “klaster” tushunchasiga bir qator ta’riflar berilgan. Klaster – bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo’lgan korxonalar guruhi.

Tahlil. Ipakchilik sanoatida ilg’or ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda klaster tizimi qanday tashkil etilgan. Masalan Xitoy Xalq Respublikasi dunyo mamlakatlarida ichida ipak mahsulotlari yetishtirish va ishlab chiqarish bo’yicha birinchi o’rinda turadi. Chunki mamlakatda yiliga 7 marotaba pillakorlar tomonidan ipak qurti boqiladi va pilla hosili olinib qayta ishlanadi. Xitoyda ipakchilik klasteri rivojlangan bo’lib bu mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotlar dunyo bozorlarini egalagan. 2017 yil hisobida Xitoy mamlakati 1mil, 42,000 tonna xom ipak ishlab chiqargan va olingan yarim tayyor mahsulotlarni to’ligicha o’zida qayta ishlab qolgan mamlakatlardan ham xom ipak sotib olgan va uni tayyor mahsulot qilib yevropa mamlakatlariga sotgan. Undan keyingi o’rinda esa Hindiston mamlakati turadi, Bu mamlakatda ham ipakchilik klasteri rivojlangan bo’lib mamlakat aholisining ko’pchilik qismi ipakchilik bilan shug’illanadi. Hindistonda har bir fermer xo’jaliklari 5 gektardan yer maydonida tutzorlar barpo qilib ipak qurti boqiladi. Bu mamlakatda ham 2017 yilda 31,906 tonna xom ipak ishlab chiqarilgan bo’lib 35618 tonna xom ipak qayta ishlanib tayyor mahsulot eksport qilinib sotilgan.

Xo’sh bizning mamlakatimizda ipakchilik klasteri qanday rivojlanmoqda hukumatimiz tomonidan sohaga qaratilgan e’tiborlar tufayli quyidagicha natijalarga erishilmoqda. Respublikada pillachilik tarmog’ini rivojlantirish, pilla yetishtirish va uni qayta ishlash jarayoniga zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ipak mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni eksport qilish hajmini oshirish, hamda tarmoqqa to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish bo’yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda

Bundan tashqari ipakchilik sanoatida klaster tizimi orqali 2019-2025 yillarda 182 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Jumladan 6 ta ipak qurti urug’i ishlab chiqarish korxonasi, 50 ta gilam ishlab chiqarish korxonasi, 50 ta ipakni qayta ishlash korxonasi, 50 ta to’quv va tikuv fabrikalari loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Rejalashtirilgan korxonalarning mahsulotlarni qayta ishlab tayyor mahsulot olish yangi texnologiyalarni strategik hamkorlar Xitoy, Yaponiya, Koreya, Italiya, Turkiya, Pokistan, Hindiston davrlarlarida ishlab chiqarilgan zamonaviy texnologiyalar asosida loyihalash nazarda tutilgan.

2022 yilda tizim tashkilotlari tomonidan respublika bo’yicha jami 143,7 mln. tup, shundan tutchilikka ixtisoslashgan xo’jaliklarda 64 mln. tup, pillachilik klasterlarida

22,9 mln. tup, aholi xonadonlarida 51,6 mln. tup va o'rmon xo'jaliklarida 5,2 mln. tup, tut ko'chatlari yetishtirilgan.

O'zbekiston tarixida ipakchilik yo'nalishida birinchi marta tut ko'chatlarini eksport qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. 2017 yilda 7,5 mln. tup, 2019 yilda 13,4 mln. tup jami 20,9 mln. tup tut ko'chatlari 1,1 mln. AQSH dollar evaziga import qilingan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, Qozog'iston Respublikasining TOO "ASVS Oyl" korxonasi bilan Andijon viloyatidagi "Ipak" tutchilikka ixtisoslashgan xo'jalik o'rtasida 2021-2025 yillarda 27 mln. tup tut ko'chati yetkazib berish va parvarishlash agrotexnikasi bo'yicha 2,4 mln. AQSH dollarlik eksport shartnomasi imzolagan.

"O'zbekipaksanoat" uyushmasiga a'zo korxonalar tomonidan 2022 yilda jami 2 014,9 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, uning yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 0,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi esa 3,2 foizni tashkil etgan. 2022 yilda O'zbekistonda jami 521,6 ming tonna xom ipak, 286,9 ming tonna ipak momig'i, 617,1 ming p.m ipak mato, 246,8 ming tonna ipak kalava, 338,9 ming tonna tayyor ipakli mahsulotlari, 3,5 dona ipak gilamlar ishlab chiqarilgan (1-jadval).

1-jadval

"O'zbekipaksanoat" uyushmasiga a'zo korxonalar tomonidan 2022 yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmlari¹

T/p	Tarmoqlar va mahsulotlar nomi	O'lchov birligi	2022 yil			
			Yillik o'rt. Quvvat	natura	hajmi, mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da
1	"O'zbekipaksanoat" uyushmasi	mlrd.so'm			2 014,9	162,1
1	Xom ipak	ming tonna	2,5	2,5	521,6	162,1
2	Ipak momig'i	ming tonna	1,2	1,2		114,3
3	Ipak mato	ming p.m.	12 341,8	12 341,8	617,1	338,0
4	Ipak kalava	ming tonna	1,1	1,1	246,8	135,0

5	Tayyor ipakli mahsulotlar	ming tonna	1 694,6	1 694,6	338,9	181,0
6	Ipak gilam	dona	885,0	885,0	3,5	225,2

Mamlakatimizda pillachilikni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor, yaratilgan qator imtiyoz va imkoniyatlar o'z-o'zidan mazkur yo'nalishda faoliyatini olib borish istagidagi korxonalar sonining ortishiga zamin yaratdi. 2017 yilning sentabr oyida O'zbekiston dunyo mamlakatlari orasida yigirmanchi davlat sifatida Xalqaro ipakchilik Kengashiga (ISC) a'zo bo'lgach, "O'zbekipaksanoat" uyushmasi qoshida 13 ta hududiy, 144 ta tuman "Agropilla" MCHJlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ayni paytda tizimda 11 ta ipak qurti urug'i tayyorlovchi, 71 ta klaster usulida pillani yetishtirish va qayta ishlash asnosida ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud. Jami 761 ming nafar, shundan, 24 ming 440 nafari doimiy va 736 ming 567 nafari mavsumiy ish o'rinlari yaratilgan.

Oxirgi ikki yilda yangi loyihalarning amalga oshirilishi, sohada ilmiy-tadqiqot ishlarining rivojlantirilishi natijasida 10 ta ipak mato, ipak gilam va tayyor ipakli mahsulotlar, 3 ta ipak va jun aralashmalaridan qo'lda gilam to'quvchi yirik korxona hamda 1 ta ipak qurti g'umbagidan oqsil ishlab chiqaruvchi quvvat ishga tushirildi. Ipak qurti g'umbagidan yog' ishlab chiqarish, uning asosida esa qimmatbaho dorivor va farmakologik vositalar, kosmetologiya yo'nalishidagi mahsulotlar, pilla sovuni, shuningdek, tut bargidan choy ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Ipak va ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekistondagi eng yetakchi hudud Samarqand viloyati hisoblanib, jami ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 13,1 foizi ushbu viloyat hissasidir. Keyingi o'rinlarini esa 12,6 foiz ulush bilan Andijon viloyati, 10,3 foiz ulush bilan Buxoro viloyati egallaydi.

XULOSA

Mamlakatimizda ipakchilik sanoatini rivojlantirishda klaster tizimini samaradorligini oshirishda ilm-fan tarmog'i vakillari, ya'ni proffessor-o'qituvchilarni, iqtidorli talaba yoshlarni jalb qilish orqali sohani rivojlantirish, hamda oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish orqali samaradorlik erishish mumkin. Bunda asosan sohaning yetuk olimlari bajarayotgan innovatsion ishlanma va g'oyalar asosida ishlab chiqarish korxonalaridagi muamolar yechimini topish va shuning hisobiga samaradorlikni uch barobargacha oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev "Ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi" 2023-yil 24-fevral, PQ-73-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2856-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada pillachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4047 qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 avgustdagi “Respublikada pillachilik tarmog‘idagi mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3910-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida, 12.01.2018 yildagi PQ-3472-son